

PODSHOHXOJA HIKOYATLARINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Nazarova Dilafruz Ixtiyorovna,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti katta o‘qituvchisi
Email: ndilafruz476@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ibodulla Sayid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja – Xojaning “Miftohul-adl”, “Gulzor” va “Maqsad ul-atvor” asarlaridagi hikoyatlari tahlil qilinadi. Adibning o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida tutgan o‘rni adabiy merosi asosida tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: Hikoya, didaktika, obraz, an‘ana, adabiy meros, o‘ziga xoslik, mavzu, g‘oya.

Аннотация. В данной статье анализируются рассказы Ибадуллы Сайида Падшахходжи ибн Абдулваххобходжи – Ходжи из его произведений “Мифтохуль-адль”, “Гульзор” и “Максад ул-атвар”. На основе его литературного наследия рассматривается роль писателя в развитии узбекской литературы.

Ключевые слова: Рассказ, дидактика, образ, традиция, литературное наследие, оригинальность, тема, идея.

Annotation. This article analyzes the stories of Ibadulla Sayid Padshahkhoja ibn Abdulvahhobkhoja – Khoja in his works “Miftohul-adl”, “Gulzor” and “Maqsad ul-atvor”. The writer’s role in the development of Uzbek literature is examined on the basis of his literary heritage.

Keywords: Story, didactics, image, tradition, literary heritage, originality, theme, idea.

Kirish. Hikoyat Sharq adabiyotida mustaqil shakllangan adabiy janrdir. XV asrning oxiri XVI asrda yashab ijod etgan Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja – Xoja ushbu janrning taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ijodkorlardan biridir. Adib hikoyatlari o‘zining purhikmat ma‘nodorligi va ixcham shaklga egaligi bilan kitobxonlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan. Hikoyat ixchamlikka asoslanadi va unda pand-nasihat, xissa-xulosa muhim o‘rin tutadi. Adibning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlari XVI asrda yozilgan bo‘lsa-da, ular o‘z davrinigina emas, o‘zigacha bo‘lgan davr turkiy adabiy til xususiyatlarini to‘la aks ettirgan bebaho ma‘naviy yodgorliklardan biridir. Har ikkala asardagi hikoyatlar aniq va sodda turkiy adabiy tilda yozilgan bo‘lib, aksariyat hikoyatlar sodda gaplardan tuzilgan va real hayot manzaralarini ko‘z oldingizda aniq gavdalandiradi. Adib o‘quvchiga barcha detallarni birma-bir ko‘rsatib o‘tirmaydi, balki his qilish, ko‘z oldiga keltirish imkonini qoldiradi.

Adabiyotlar sharhi. Mumtoz badiiy adabiyot har doim ham dindand oziqlangan. Asosiy g‘oyalarni Qur‘oni Karim va Hadislardan oladi. Komil insonni tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilgan didaktik adabiyot axloqiy mezonlarni shu ikki manbaga tayanib belgilaydi. Bizgacha yetib kelgan didaktik asarlarda buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shu an‘anani davom ettirgan Xoja ijodida ham Qur‘oni Karim oyatlari va Hadislar sharhini uchratamiz. Jumladan, “Miftoh ul-adl”, “Gulzor” va “Maqsad ul-atvor” asarlari Allohga hamd bilan boshlanadi, keyin asar yozishdan maqsadi, asarni kimga bag‘ishlagani, yozayotgan asarining g‘oyasi, asarda yoritmoqchi bo‘lgan mavzulari bayon etiladi. Har bir mavzu – g‘oya haqida fikr-mulohaza yuritgach, oyat va hadisdan namunalar keltiriladi.

Keltirilgan oyat sharhlanganidan soʻng, shu oyat mazmuniga yaqin hadis keltiriladi va maʼnosi izohlanadi. Hamda oyat va hadislarida ifodalangan gʻoyalar asosida mavzuga monand hikoyatlar keltiradi. Asar syujeti shu tarzda davom etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Xojaning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlari XI asrdan oʻziga xos anʼana tusini olgan pand-nasihahat ruhida yozilgan badiiyat namunalari turkumiga mansubdir, – deya eʼtirof etadi, – R.Vohidov [1.514].

Natijalar. Nizomiy, Shayx Saʼdiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylarning anʼanalarini davom ettirib, kichik hajmli ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-taʼlimiy, insonparvarlik ruhida hikoyatlarini yuqoridagi asarlarida keltirgan. Podshohxoja hikoyatlarida oʻz davrining muhim jihati hisoblangan, ahamiyatga molik boʻlgan axloqiy-taʼlimiy, ijtimoiy, siyosiy masalalarini ilgari surdi va ularni insonparvarlik nuqtayi nazardan turib yoritdi. Adolat, toʻgʻrilik, halollik, poklik, saxiylik, ilm-maʼrifat, insonparvarlik mavzulari hikoyatlarining bosh mavzusiga aylandi.

Podshohxoja hikoyatlari mavzu jihatidan rang-barang boʻlib, ularni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Diniy-tasavvufiy mavzudagi hikoyatlar.
2. Axloqiy-didaktik mavzudagi hikoyatlar.
3. Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi hikoyatlar.

Xoja hikoyatlari mavzu doirasining yuqorida keltirilgan tasnifi shartli, albatta. Sababi, adib hikoyatlarini boshqa jihatdan ham tasniflash mumkin. Masalan:

1. Paygʻambarlar haqidagi hikoyatlar;
2. Podshohlar toʻgʻrisidagi hikoyatlar;
3. Vazirlar va beklar haqidagi hikoyatlar;
4. Din vakillari va shayhlar haqidagi hikoyatlar;
5. Ilm ahli vakillari haqidagi hikoyatlar;
6. Oddiy xalq vakillari toʻgʻrisidagi hikoyatlar;
7. Jonivorlar (hayvonlar, qushlar, parrandalar) ishtirokidagi hikoyatlar;
8. Boshqa mavzulardagi hikoyatlar.

Chunki, Podshohxoja hikoyatlarining mavzusi va obrazlar tizimi shu qadar keng qamrovliki, ularni bir-ikki tasnif orqali ochib berish ijodkor nazarda tutgan mazmun-mohiyatga toʻlaligicha yetib borish degani emas. Adib hikoyatlarida eng koʻzga tashlanadigan mavzu adolat mavzusidir. Keyingi oʻrinlarda halollik, poklik, saxiylik, ilm-maʼrifat, insonparvarlik mavzulari oʻrin oladi. Hikoyatlarida kishilarga pand-nasihatlar qiladi, odil hukmdorlar, beklar, vazirlar qiyofasini chizadi, turli axloqiy muammolarga toʻxtaladi, vaqtni behuda oʻtkazmaslikka chorlaydi. Podshohxoja naqshbandiya tariqati davomchisi sifatida va salaflari izidan borib, anʼanaviy tariqat gʻoyalarini, mazmunini oʻz ijodida aks ettirdi.

Diniy-tasavvufiy mavzudagi hikoyatlar. Barchamizga maʼlumki, tasavvuf adabiyotining mavzusi keng. Tasavvuf adabiyotida nafs, riyozat, tavba, zuhd, faqr, sabr,

qanoat kabi tariqat masalalari mavzu qilib olinishi mumkin. Tariqat asosida Haq jamoliga vosil bo'lish g'oyasi yotadi. Podshohxoja ham naqshbandiylik tariqatining davomchisi sifatida har kim o'zini Allohga bag'ishlagan va tariqatni o'ziga suluk yo'li qilib olgan kishiga, albatta, ma'naviy ustoz, ya'ni piri murshid kerak deydi:

Kimki qilur sidq ila tadbir ishq,
Kerak o'shul damda anga piri ishq [2. 109].

Hasanxoja Nisoriy o'zining "Muzakkiri ahbob" tazkirasida berishicha, Podshohxoja avlodi Xojagon silsilasiga mansub bo'lganligi bois, barcha ota-bobolari ma'naviy ustoz sifatida o'z farzandlariga botiniy tarbiya bergan ekanlar. "Abdulvahhohxoja Sulaymonxojaning sharif o'g'lidirlar. Garchi hazrat amir Abdullo Buzdoshobodiyga inobar qilgan bo'lsalar ham botindan tarbiyani o'z otasidan topganlar. Va Sulaymonxoja o'z otasi Yahyoxojaning muridi va alar o'z otasi Horunxojaning muridi va alar esa tarbiyatni o'z otalari shayhlar majidi Muhammadxojadan topganlar va ular qabul nazarini o'z otasi shayx Sadrxojadan topganlar va alar o'z otalari hazrat qutbul-aqtob Zangi Otoning muridi bo'lgan" [3. 268-269], degan ma'lumotni beradi. Bundan ko'rinadiki, Podshohxoja ham sharif otalarining botiniy tarbiyasidan benasib qolmaganligi uchun ko'plab sohalarda ilm olib, piri murshid darajasiga ko'tarilgan zot ekanligi shubhasiz. Sababi, ijodkor Allohga bo'lgan ishqni barcha narsadan ustun qo'yadi:

Xojayi bechoraga ey korsoz,
Bandaliging shavqida bergil niyoz.
Mol ila farzandga band etmagil,
Mehrini bo'yninga kamand etmagil.
Solg'il oning ko'ngliga mehringni bot,
Bergil o'shal mehr ila anga najot.
Mehr ila ko'nglini masrur qil,
Jon ko'zin ul mehr ila purnur qil [2. 111].

Xoja Yaratgan oldida o'zini bechora sanab, undan mol-mulkka, farzandga ortiqcha mehr berib, haqiqiy ishqdan benasib etmasligini so'raydi. Allohga bo'lgan ishqgina insonni nafs iskanjasidan qaytarguvchi, uni poklik sari yetaklovchi, ma'naviy yuksaklikka boshlovchi najot ekanligini uqtiradi.

Xojaning "Gulzor" asariga kiritilgan "Iskandar Zulqarnayn va devona Shahzoda", "Shayh va murshid" hikoyatlari diniy-tasavvufiy mavzuda yozilgan. Hikoyatda: Ayturlarkim, bir kishi bir murshid qoshiga kelib ayttikim: ey shayx, mandin jurm va xato ko'p voqe' bulubdur, emdi manga tavba va inobat berg'il. Shayx aydikim: saning ko'ngling bir havzga o'xshar va anga besh arig'din loy suvlar kirib, taqi ul havzni tiyra qilurlar. Agar ul arig'larning yo'llarini bog'lasang va bu havzaga tiyira suvlar kirmasa, ondin so'ng sang'a tavba va inobat berurman, yo'qsa tavbaning sanga hech foydasi yo'qdur. Ul kishi so'radikim, ul besh ariq qaysilardur? Shayx aydi: bir ariq – ko'zingning yo'lidurkim, musulmonlarning ahli ayoliga xiyonat birlan boqmag'aysan. Yana bir ariq –

og‘zingning yo‘lidurkim, andin yomon, harom nimarsalarni yemagaysan. Yana bir ariq – iliklaringdurkim, kishini nohaq urub, mollarini olmag‘aysan. Yana bir ariq – oyoqlaringning yo‘lidurkim, qadam birlan nomashru yomon joylarga bormagaysan, misli bo‘zaxona, sharobxona va mafsqaqa. Yana bir ariq – quloqlaringning yo‘lidurkim, g‘iybat so‘zlarni eshitmagaysan. Ul kishi aydi: ey shayx, yo‘llardin qaytib, bog‘ladim. Ondin shayx ul kishiga tavba va inobat berdi va oz fursatda ul kishi ul tariq birlan suluk qildi, ersa sohibi kamol murshid bo‘ldi” [4. 48]. Tushunimizcha, Xoja bu hikoyatni keltirish orqali o‘zining diniy-tasavvufiy fikrlarini ifodalab, shayh timsolida berishga harakat qilgan.

“Iskandar Zulqarnayn va devona Shahzoda” hikoyatida esa Iskandar Zulqarnayn bir viloyatni qo‘lga kiritadi va bu viloyatning hokimini olib kelinglar deydi. Xalq bu viloyatning bir podshohzodasi bordur, ammo u bir devonadir. Qabrison uning makonidir. Xalq bilan ixtilofi yo‘q. Iskandar ul devonani olib kelishini aytadi. Devona shahzoda Iskandarning oldiga kelayotganda ikki qo‘liga ikki suyak olib keladi: “Aydi: Bu so‘ngoklarning birisi podshoh so‘ngokidur, birisi gado so‘ngokidur. Muni farq qilg‘ilkim, podshoh so‘ngoki qayisidur, gado so‘ngoki qayisi turur? Iskandar aydi: ey devona, bu churuk so‘ngokni odami nechuk farq qilurkim, bu so‘zni aytursan? Devona aydi: o‘lgondin so‘ng podshoh birlan gadoning hech farqi yo‘q erkan, bas, podshohlikdin murod ne turur, tedi. Iskandar aydi: seni devona derlar, san oqil kishi ermishsan. Kelg‘il, bu mamlakatning podshohlig‘ini qabul qilg‘ilkim, sanga ulug‘ tarbiyat qilolom... Devona aydi: manga to‘rt nima bergil, man podshohlikni qabul qoloyin. Avval bir tiriklik bergilkim, aning so‘ngida o‘lim bo‘lmasun: va yana bir yigitlik bergilkim, aning so‘ngida qarilik bo‘lmasun: va yana bir g‘aniylik bergilkim, aning so‘ngida faqirlik bo‘lmasun: taqi bir shodlik berg‘ilkim, aning so‘ngida g‘amginlik bo‘lmasun. Iskandar aydi: ey devona bu to‘rt nimani man bera olmasman, ani Haq taolaning o‘zi berur, andin tilag‘il...” [4. 30]. Adib bu hikoyati orqali darvish shahzodaning podshohlikdan ko‘ra haq yodi bilan mashg‘ul bo‘lish afzal ekanligini, bandaning borar joyi qabrison deb ko‘rsatadi. Kishining irqi, millati, jinsi, maslagi, yoshi, egallab turgan mavqeyi, martabasi, ijtimoiy kelib chiqishi, tabaqasidan qat‘iy nazar Alloh oldida barobar ekanligi ta’kidlanadi.

Axloqiy-didaktik mavzudagi hikoyatlar. Podshohxojaning ko‘pgina hikoyatlari pand-nasihat ruhida yozilgan bo‘lib, adolat, to‘g‘rilik, halollik, poklik, saxiylik, ilm-ma‘rifat, insonparvarlik kabi ezgu fazilatlar hamda adovat, yolg‘onchilik, moddiy boylikka mehr qo‘yish, xiyonat kabi bir qator illatlar hikoyatlarida aks etadi. Bu mavzudagi hikoyatlariga, “Luqmoni Hakim”, “Hazrati Sulaymon payg‘ambar Ollohdan farzand tilagani”, “Haj qilmoqni istagan shoh”, “Imom A‘zam va oti bor odam”, “To‘g‘ri daraxti bor kampir” va boshqa hikoyatlarini misol qilib keltirish mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi hikoyatlar. Ushbu mavzudagi hikoyatlarining bosh qahramoni adolatli shoh timsolidir. Agar shoh, bek yoki vazirlar boshqaruvni adolat bilan boshqarib, xalqqa zulm o‘tkazmaslikka chaqiradi. Bu haqda muallif “Gulzor” asarining

muqaddima qismida shunday ma'lumotni keltiradi: "Adlda ikki foyda bor turur, zulmda ikki zarar bor turur. Adldagi ikki foydaning birisi buki, mamlakat obodon bo'lib, raiyat ma'mur bo'lur. Va yana zulmning ikki zarari bukim, mamlakat vayron bo'lib, raiyat xarob bo'lur va yana birisi bukim, zolim podshoh do'zah o'tig'a giriftor bo'lib, kabob bo'lur" [5. 58]. Qur'oni Karimdan oyatlar va hadisi sharifdan namunalar keltirish orqali esa hikoyatlarida ko'tarilgan mavzuni dalillanadi. Bu mavzudagi hikoyatlariga "Iskandar va Chin hoqoni", "No'shiravon va Ozarbayjon begi", "Sulton Mahmud G'aznaviy, vazir va ikki boyqush", "No'shiravoni odil, hukamo va beklar", "Bahrom Go'r va uning vaziri Rostiravshan", "Sulton Mahmud G'aznaviy va Ayozi Xos" kabi bir qator hikoyatlarni kiritishimiz mumkin.

Ikkinchi tasnif bo'yicha esa quyidagi obrazlar ishtirok etgan hikoyatlarini keltirishimiz mumkin. Eng ko'p Sulaymon, Muso, Muhammad, Dovud, Nuh, Solih, Iso alayhissalomlar haqida hikoyatlar keltirgan.

Podshohlardan: Sulton Mahmud G'aznaviy, Iskandar Zulqarnayn, No'shiravoni odil, Sulton Malikshoh, Sulton Sanjari Moziy, Horun ar-Rashid, Xusrav shoh, Bahrom Go'r;

Vazirlar va beklar haqida: Ayozi Xos, Rostravshan, Xo'ja Hasan, Ozarbayjon begi va boshqalar;

Din vakillari va shayhlar haqida: Xalifalardan eng ko'p Hazrati Ali, Umar roziyollohi anhu, so'ngra qolgan ikki xalifa va Husayn tilga olingan. Shayhlardan esa Imom A'zam, Tavis ibn Yaman, Shayh Bahlul;

Ilm ahli vakillari haqida: Luqmoni Hakim, Aflotun hakim, tolibi ilm, murshid;

Oddiy xalq vakillari to'g'risida: Cho'pon, darvesh, kampir, oti bor odam, bir odam, do'st, boshiga un qo'ygan ayol, farzand, qush bo'yniga ip taqayotgan bola, qul;

Jonivorlar (hayvonlar, qushlar, parrandalar) ishtirokidagilar: ot, it, butimor, chumchuq, ilon, boyqush, pashsha;

Boshqa mavzulardagilar: Zulfiqor qilichi, tosh, yel, daraxt, quyosh, oy, shamol, suv, me'roj kechasi, shayton kabi obrazlardan foydalangan holda hikoyatlar yaratgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Podshohxojaning bir qator mavzudagi hikoyatlarida ko'proq ilm-ma'rifat, Allohga muhabbat, qadar borligiga ishonch kabi masalalarga bag'ishlangan bo'lsa, axloqiy-didaktik mavzudagi hikoyatlarida insoniy fazilat va illatlarga ahamiyat qaratadi. Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi hikoyatlarida sharh va poetik hukmlarga, biron bir tarixiy shaxs yoki ulamoning xatti-harakatiga asoslangan bo'lsa, diniy-tasavvufiy mazmundagi hikoyatlarida poetik xulosalar esa ko'proq tasavvuf ta'limoti tushunchalari bilan ifodalanadi. Bu Xojaning tasavvuf ta'limotining tariqat, maslak va g'oyalardan yaxshi xabardorligidan va o'zi ham shu tariqat vakili ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (энг қадимги даврлардан XVI аср охиригача) Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006.
2. Подшоҳхожа. Мақсад ул-атвор / Асрлар нидоси. – Б. 139.
3. Ҳасанхожа Нисорий. Музақкири аҳбоб. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 344.
4. Подшоҳўжа. “Мифтоҳул-адл” ва “Гулзор”дан. – Тошкент: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1962. – Б. 58.
5. Podshohxoja. “Miftoh ul-adl”. № D.4656 inventar raqamli qo‘lyozma. – B. 134.

